

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2026-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar

Hay'atning kengaytirilgan yig'ilishini Buxoro viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i U.Djumanazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni va joriy yilning 24-fevral kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son qarori ijrosiga muvofiq, amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar hamda hududiy statistika organlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar batafsil muhokama qilindi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi 100-son qarori bilan tasdiqlangan 2026-yil uchun Statistika dasturiga muvofiq joriy yil yanvar-mart oylarida jami 244 ta statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda bajarildi.

- Statistika boshqarmasida hujjatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, har bir nazoratdagi hujjat bo'yicha ijrochilarni va ijro muddatlarini aniq belgilash va hujjatlar ijrosi yuzasidan "edo.ijro.uz" dasturi orqali kunlik nazorat olib borilmoqda.

- Yig'ilish davomida Farmonda vazirlik va idoralarga yuklatilgan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash zarurligi qayd etildi hamda bu borada mas'ul shaxslarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shu bilan birga, yig'ilishda statistika faoliyatini tashkil etish, boshqarma hamda tuman va shahar bo'limlari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq hamda hay'at vakolatiga kiruvchi tegishli masalalar xam muhokama etilib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

- Hisobot davrida, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistika ma'lumotlari (axborotnoma, byulleten, to'plam va boshqa nashrlar) tayyorlanib, hokimlik va idoralarga taqdim etildi.

Jumladan, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2026-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar, ishlab chiqilgan tahliliy statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil 1-aprel holatida Buxoro viloyatida iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 39 193 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 29 738 tani, faoliyat ko'rsatmayotganlari esa 9 455 tani, ya'ni jami ro'yxatdan o'tgan korxonalarning 24,1 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat Sanoat korxonalari tomonidan 12 671,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil qildi.

Qurilish korxonalari tomonidan 4 618,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari olib borildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,0 foizni tashkil qildi.

Chakana tovar aylanmasining hajmi 6 678,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilga nisbatan 118,2 foiz) va xizmatlar ko'rsatish hajmi 11 716 mlrd. so'mni (o'tgan yilga nisbatan 113,9 foiz) tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5,8 trln.so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 foizga yetdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida 2025-yilning mos davriga nisbatan 153,4 foizga o'sish kuzatildi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2026-yil 1- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.